



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





So‘z birikmasi sintaksisining zamonaviy lingvistik talqini va tasnif tamoyillari

Nodirabegim Ismoilova

Andijon davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, filologiya

fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirmamatova Madina Murodiljon qizi

ADPI Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sintaksisning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan so‘z birikmasi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. So‘z birikmasining mohiyati, uning grammatik va semantik xususiyatlari, nopredikativlik belgisi hamda gapdan farqli jihatlari turli olimlar qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, so‘z birikmalarining tuzilishi, grammatik tabiatiga ko‘ra tasnifi, hokim va tobe qismlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning bog‘lanish usullari (boshqaruv, moslashuv, bitishuv) izchil tahlil etilgan. Zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida so‘z birikmasining nafaqat struktur, balki semantik-kommunikativ birlik sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, sintaksis, hokim so‘z, tobe so‘z, nopredikativlik, grammatik aloqa, semantik munosabat, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, sodda birikma, murakkab birikma, otli birikma, fe‘lli birikma.

Abstract: This article analyzes the issue of a word combination, which is an important component of syntax, from a scientific and theoretical perspective. The essence of a word combination, its grammatical and semantic properties, non-predicative sign, and its differences from a sentence are covered based on the views of various scholars. Also, the structure of word combinations, their classification according to grammatical nature, the relationship between the dominant and subordinate parts, and the methods of their connection (control, adaptation, conjunction) are consistently analyzed. Based on modern linguistic approaches, the importance of a word combination not only as a structural but also as a semantic-communicative unit is revealed.

Keywords: word combination, syntax, dominant word, subordinate word, non-predicateness, grammatical connection, semantic relationship, control, adaptation, conjunction, simple compound, complex compound, noun compound, verb compound.

Sintaksis masalalari tilshunoslikning eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda so‘z birikmasi alohida tadqiqot obyekti sifatida ajralib turadi. So‘z birikmasi — bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning grammatik va semantik jihatdan bog‘lanishi natijasida yuzaga keladigan sintaktik birlikdir. Uning o‘rganilishi tilning struktur tizimini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hozirgi lingvistik yondashuvlarda so‘z birikmasiga faqat formal birlik sifatida emas, balki kommunikativ va semantik tizimning muhim komponenti sifatida qaralmoqda.

Ma‘lumki, nutqda har bir grammatik birlik boshqasi bilan bog‘liq holda ma‘lum bir ma‘no ifodalashga xizmat qiladi. Bir gap tarkibidagi bir-necha so‘zlar bir-biri bilan bog‘lanmasdan turib vazifa bajara olmaydi. Gap tarkibidagi ma‘lum so‘zlar





o‘zaro ohang, ma‘no va grammatik jihatdan bog‘lanib, so‘z birikmalarini hosil qiladi. So‘z birikmasi sintaksisi yuzasidan turli adabiyotlarda turlicha fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, M. Hamrayev va boshqalarning umumiy muallifligi ostida chop etilgan “Ona tili” o‘quv qo‘llanmasida shunday ta‘rif beriladi: “Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘z va so‘z shakllarning nopredikativ tobe aloqasi asosida birikishidan hosil bo‘lgan bog‘lama so‘z birikmasi deyiladi”.¹

B. O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha keladi: “So‘z birikmasi sintaktik ta‘limotning tarkibiy qismi bo‘lib, bunda so‘zlarni o‘zaro aloqaga kirituvchi vositalar, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usullari, so‘z birikmalari va ularning tiplari o‘rganiladi”.²

M. Hamrayev tomonidan tayyorlangan ma‘lumotnomada esa shunday deyilgan: “So‘z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma‘no, grammatik va ohang jihatidan birining boshqasiga tobe bo‘lib, bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birlik. Masalan: Charm qo‘lqop, baland bino”.³

M. Mirzayev va boshqalarning umumiy muallifligi ostidagi chiqarilgan “O‘zbek tili” qo‘llanmasidagi ta‘rif yuqoridagilardan biroz farq qiladi. Unda shunday keltiriladi: “Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan o‘zaro birikkan ikki va undan ortiq so‘z so‘z birikmasi deyiladi”.⁴

Yuqorida keltirilgan ilmiy ta‘rif va qarashlar shuni ko‘rsatadiki, so‘z birikmasi masalasi tilshunoslikda izchil va ko‘p qirrali tarzda o‘rganilgan bo‘lib, uning mohiyatini turli nuqtai nazarlar orqali yoritish an‘anaga aylangan. Har bir olim ta‘rifida ayrim farqli jihatlar uchrasa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy belgi — mustaqil so‘zlarning o‘zaro tobelik asosida grammatik va semantik bog‘lanishidir. Aynan shu jihat so‘z birikmasini boshqa til birliklaridan ajratib turadi hamda uni sintaktik tizimda alohida o‘rin egallashini ta‘minlaydi.

Shu bilan birga, ta‘riflarda “nopredikativlik” belgisi alohida urg‘u bilan berilishi ham muhimdir. Chunki so‘z birikmasi gapdan farqli ravishda hukm (fikir) bildirmaydi, balki predmet, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtiradi, kengaytiradi. Masalan, baland bino yoki tez yugurmoq kabi birikmalar mustaqil holda tugallangan fikrni ifodalamaydi, ammo gap tarkibida muhim sintaktik vazifa bajaradi.

Zamonaviy lingvistik yondashuvlar esa ushbu birlikka yanada kengroq nuqtai nazardan qarashni taqozo etadi. Xususan, so‘z birikmasi nafaqat struktur birlik, balki ma‘no hosil qiluvchi tizim sifatida ham talqin qilinmoqda. Bu esa birikma tarkibidagi komponentlarning o‘zaro semantik munosabatlarini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Masalan, aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki hol munosabatlari orqali yuzaga keladigan birikmalar nutqda turli kommunikativ ehtiyojlarni qondiradi va fikrni aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

¹ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2008.

² B. O‘rinboyev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” – Samarqand - 2001.

³ M.A.Hamrayev. “Ma‘lumotnoma”. Toshkent – 2009.

⁴ M.Mirzayev. “O‘zbek tili”. Toshkent - 1987.





Soʻz ham, soʻz birikmalari ham tilda juda katta ahamiyatga ega boʻlgan birliklardir. Soʻz va soʻz birikmalari oʻrtasida koʻp jihatdan oʻxshashliklar mavjud. Bu oʻxshashliklar asosan quyidagilardan iboratdir: tilning asosini soʻzlar tashkil etadi. Lekin har bir soʻz konkret bir maʼno ifodalagani bilan hali u tugal emas. Soʻzlar bir-birlari bilan munosabatga kirishib, gap boʻlgandagina tugal maʼno ifodalaydilar va nutq shakliga kiradi. Lekin soʻzlar gap tarkibida xuddi munchoqni ipga tergani kabi birikmaydilar, ular gruppalashadi, soʻz birikmalari deb ataluvchi maʼlum qurilish xarakteriga ega boʻlgan soʻz gruppalari oʻzaro birikadi. Soʻzlarning ana shunday birikuvlaridagina gap paydo boʻladi.⁵

M. Hamrayevning fikricha, soʻz birikmalari quyidagi xususiyatlari asosida tasnif qilinadi:

1. Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra.
2. Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra.

Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra tasnif qilinganda, hokim aʼzoning qaysi soʻz turkumidan ekanligi, tobe aʼzoning sintaktik vazifasi asosga olinadi.⁶

Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra tasnifi B. Oʻrinboyevning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” oʻquv qoʻllanmasida quyidagicha berilgan: “Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi:

1. Sodda soʻz birikmalari
2. Murakkab soʻz birikmalari.

Sodda soʻz birikmalari ikki mustaqil, toʻliq maʼnoli soʻzlarning leksik-semantik va grammatik jihatdan birikuvidan paydo boʻladi va bir butun murakkab maʼnoni ifodalaydi: qizil olma, mening Vanim, yaxshi kitob, ishga bormoq kabilar.

Murakkab soʻz birikmalari uch va undan ortiq soʻzlarning leksik-semantik va grammatik jihatlardan oʻzaro aloqaga kirishishlaridan tashkil topadi. Murakkab soʻz birikmalari sodda soʻz birikmalarining kengayishidan paydo boʻladi: bayroq-yashil bayroq, yangi yashil bayroq, hilpirayotgan yangi yashil bayroq kabilar”.⁷

Ammo bu borada M. Hamrayevning fikri tushunarliroq va asosliroqdir, yaʼni u soʻz birikmasi haqida shunday deydi: “Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra 2 xil boʻladi:

- 1) oddiy soʻz birikmalari;
- 2) murakkab soʻz birikmalari.

Soʻzshakl bilan soʻz (leksema)ning yoki ikki soʻzshaklning bogʻlanmasi oddiy soʻz birikmasi hisoblanadi: keng dala, tekisroq yoʻl, tinchlikka daʼvat qilmoq, davlatlarning hamdoʻstligi, maktab hovlisi. Biror qismi frazeologik ibora yoki murakkab tushunchani bildiradigan turgʻun birikma bilan ifodalanadigan soʻz birikmasi ham oddiy soʻz birikmasiga mansub boʻladi. Masalan: yulduzni benarvon uradigan odam, Fanlar akademiyasi institutlari kabi.

⁵ Sharipov M. Hozirgi oʻzbek tilida soʻz birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918

⁶ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2012.

⁷ B. Oʻrinboyev. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” – Samarqand - 2001.





Murakkab soʻz birikmasi. Bunda birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi soʻz birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh boʻlgan kishi kabi soʻz birikmalarining tobe qismi (“mehnat qilishni sevadigan”, “odamlarga xayrixoh boʻlgan”) soʻz birikmasi shaklida qoʻllanib, hokim soʻzga bitishuv yoʻli bilan bogʻlangan. Murakkab soʻz birikmasining biror qismi, koʻpincha tobe qismi predikativ birlik, predikativ bogʻlanma bilan ham ifodalanishi mumkin: “qiliqlari yoqimli bola”, “ota-onalarimiz bergan nasihatlar” kabi birikmalarning tobe aʼzosi (“qiliqlari yoqimli”, “ota-onalarimiz bergan”) gapga teng qurilma, yaʼni predikativ birlik, predikativ bogʻlanma bilan ifodalangan”.

Shuningdek, soʻz birikmalari hokim yoki tobe soʻzlarning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligiga koʻra tasniflanishi ham mumkin. Buni M.Hamrayev oʻzining “Ona tili” oʻquv qoʻllanmasida “soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra tasniflanishi” deb koʻrsatadi va uni quyidagi tartibda guruhlariga ajratadi: “Soʻz birikmalari hokim qismning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) otli birikma;
- 2) feʼlli birikma;
- 3) sifatli birikma;
- 4) ravishli birikma;
- 5) modal soʻzli birikma.

Bunda hokim qismlar qaysi turkumdan ekanligi, yaʼni morfologik jihatdan qaralgan boʻlsa, tobe qismlar bajaradigan vazifasi, yaʼni sintaktik jihatdan tasnif qilingan. B.Oʻrinboyev esa oʻzining “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” qoʻllanmasida “komponentlarning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligiga koʻra” deya quyidagicha tasniflaydi: “Soʻz birikmalari hokim komponentlarning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligiga koʻra quyidagilarga boʻlinadi:

1. Otli soʻz birikmalari. Buning hokim boʻlagi vazifasida quyidagi soʻz turkumlari keladi:

a) ot keladi: katta bino, koʻp odam; c) otlashgan sifat keladi: jangda zoʻravon;
b) olmosh keladi: boradigan hech kimim; d) sifatdosh keladi: gʻolib chiqqanlar mukofotlandi.

2. Feʼlli soʻz birikmalari. Buning hokim boʻlagi vazifasida feʼl, ravishdosh keladi:

a) sof feʼl keladi: tez oʻqidi;
b) ravishdosh keladi: Nargiza dam olib keldi.

3. Ravishli soʻz birikmalari. Hokim boʻlak vazifasida ravish keladi: Oʻtloqda bedana koʻp, dangasada bahona koʻp.

4. Sifatli soʻz birikmalari. Hokim boʻlak vazifasida sifat keladi: Odam temirdan qattiq, guldand nozik.

5. Modal soʻz birikmalari: Oʻzingda yoʻq, olamda yoʻq.

6. Undovli soʻz birikmalari: Shu on qulogʻimga qalʼa tomondan eshitilar zaif oh”.⁸

Nargiza Erkaboyevaning “Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami”da esa soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishi hamda gap tuzilishi qonun-qoidalarini oʻrgangani

⁸ M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2008.





uchun unda ikki bo'limga ajratilgani, ya'ni so'z birikmasi va gap sintaksisiga bo'linishi haqida ma'lumot keltiriladi.

So'z birikmasi tobe va hokim so'zdan tuziladi. Hokim so'zning qaysi turkum bilan ifodalanishiga qarab ikki guruhga bo'linadi: otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasiga bo'linishi keltirilgan.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: shaharning ko'chalari, hammasidan katta, katta qishloq.

Fe'lli so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: kitobni o'qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq.

So'z birikmasi tobe va hokim so'zning qaysi vosita orqali bog'lanishiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

- 1) boshqaruv;
- 2) moslashuv;
- 3) bitishuv.

Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi boshqaruv deyiladi: do'stlarni hurmat qilmoq, g'alaba uchun kurashmoq, yaxshilarga g'amxo'rlik qilmoq, sharoitga ko'ra yondashmoq.

Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi: kitobning muqovasi, xonalarning kattarog'i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

So'z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi bitishuv deyiladi: tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o'quvchi, mehribon murabbiy.

So'z birikmalari ham so'zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so'z - leksik hodisa, so'z birikmasi - grammatik hodisa. So'z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Masalan, kitob so'zi bir narsaning umumlashgan oti bo'lib, yolg'iz tushunchani ifodalaydi, o'rtog'imning kitobi birikmasida esa faqat kitob ma'nosining o'zi emas, balki o'rtog'imga tegishli kitob tushunchasi ifodalanadi.

So'z birikmalarida ma'no, tushuncha ancha aniq va ravshan bo'ladi. Masalan: nor - erkak tuya, g'o'nan - ikki yashar ot, ezma sergap odam.

Shuning uchun lug'atlarda so'zning ma'nosini ochib berishda so'z birikmalaridan foydalaniladi.

So'z birikmasida ham, so'zda ham qismlar bir xil so'z turkumlariga oid bo'lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu ularning shakliy o'xshashligidir. Lekin so'z birikmasidagi qismlar ma'no mustaqilligini saqlaydi. Qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi esa saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning umumiy ma'nosi orqali anglashiladi.

So'z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yo'qolgan bo'ladi.





Soʻz birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida- alohida soʻroq berish mumkin: kitobni (nimani?) oʻqimoq, uydan (qayerdan?) chiqmoq kabi. Qoʻshma soʻzlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: kungaboqar (nima?), kamquvvat (qanday?) kabi.⁹

Demak, soʻz birikmasi mustaqil soʻzlarning grammatik va semantik jihatdan oʻzaro tobelanishi natijasida shakllanib, tilning sintaktik tizimida muhim funksional birlik sifatida namoyon boʻladi. U nutqda predmet, belgi va harakatni aniqlashtirish orqali fikrning yanada mukammal ifodalanishiga xizmat qiladi hamda gapning shakllanishida asosiy qurilish elementi vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soʻz birikmasi haqidagi ilmiy qarashlar turli yondashuvlarga asoslangan boʻlsa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat — bu birlikning grammatik bogʻlanish, semantik yaxlitlik va nopredikativlik xususiyatlaridir. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar esa soʻz birikmasini nafaqat struktur birlik, balki kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etib, uning til tizimidagi ahamiyatini yanada kengroq ochib bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2008.
2. B. Oʻrinboyev. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” – Samarqand - 2001.
3. M.A.Hamrayev. “Maʼlumotnoma”. Toshkent – 2009.
4. M.Mirzayev. “Oʻzbek tili”. Toshkent - 1987.
5. Sharipov M. Hozirgi oʻzbek tilida soʻz birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918
6. M.A.Hamrayev va boshqalar. “Ona tili”. Toshkent – 2012.
7. B. Oʻrinboyev. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” – Samarqand - 2001.
8. Nargiza Erkaboyevaning “Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami”. Toshkent-2021.
9. SOʻZ BIRIKMASI SINTAKSISI YUZASIDAN MAVJUD BILIMLAR TAVSIFI: TAHLIL VA TAKLIFLAR.
<https://share.google/ctvygfe2aDvAhuxWv>.

⁹ Nargiza Erkaboyevaning “Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami”. Toshkent-2021.

